



## IJTIMOIY TARMOQLARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI VA VOSITALARI

**Nazarov Ravshan Nazarovich**  
Osiyo texnologiyalar universiteti o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Insoniyat paydo bo‘lgandan to‘ hozirgi vaqtga qadar axborotga bo‘lgan ehtiyojlari shakllanib, rivojlanib, tobora ortib bormoqda. Insoniyat bugun toshdan to‘ koinotgacha bo‘lgan bilimlar sohibi hisoblanadi. Axborot almashish uchun turli vositalarni ishlab chiqishga harakat qilib kelmoqda. Dastavval, ibtidoiy jamaa davrida biron bir belgilarga qarab, axborot almashilgan. Keyinchalik, Piktogramma shaklida ya’ni yozuvgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bunda rasmlar yoki ma’lum bir ko’rgazmali jarayonlarni ifodalash orqali axborot almashish tizimini o‘ylab topishadi.

Maqolada ijtimoiy tarmoqlarning shakllantirish omillari va vostitalari, jamiyat hayotidagi tutgan o‘rnini va roli hamda ijtimoiy tarmoqlar funksiyalarining shaxs ma’naviy qiyofasiga ta’siri tahliliy asosda o‘rganilgan. Shu bilan birgalikda, axborot olishning ahamiyati, axborotlarni ijtimoy tarmoqlar orqali uzatish borasida shakllangan qarashlar turli jihatlar tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Ijtimoiy tarmoq, axborot almashish, piktogramma, ideogramma, diagramma, telegramma, telefon, media, axborotlashgan jamiyat.

## ФАКТОРЫ И СРЕДСТВА ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ

**Назаров Равшан Назарович**

Преподаватель Азиатского технологического университета

**Аннотация:** С момента зарождения человечества и до настоящего времени его информационные потребности формируются, развиваются и возрастают. Человечество сегодня считается носителем всех знаний, пытается разработать различные средства обмена информацией. Первоначально, в эпоху первобытного общества, информацией обменивались в зависимости от каких-либо признаков. Далее в виде пиктограммы, т. е. содержащей период до написания, при была создана система обмена информацией через изображения или представление определенных визуальных процессов.

В статье на аналитической основе изучаются факторы и средства формирования социальных сетей, их место и роль в жизни общества, а также влияние функций социальных сетей на моральный облик человека. При этом с различных сторон анализировались важность получения информации, формируемые взгляды на передачу информации через социальные сети.

**Ключевые слова:** социальная сеть, обмен информацией, значок, идеограмма, диаграмма, телеграмма, телефон, средства массовой информации, информационное общество.





## FACTORS AND MEANS OF FORMING SOCIAL NETWORKS

**Nazarov Ravshan Nazarovich**

Teacher of Asian university of technology

**Abstract:** From the moment of the birth of humankind to the present, its information needs have been formed, developed and growing. Humanity today is considered the bearer of knowledge from the stone to the universe. I tried to develop various means of information exchange. Initially, in the era of primitive society, information was exchanged depending on any signs. Then in the form of a pictogram, i.e. containing the period before writing. At the same time, they come up with a system for exchanging information through images or the representation of certain visual processes.

In the article, the factors and means of formation of social networks, their place and role in the life of society, and the influence of the functions of social networks on the moral image of a person are studied on an analytical basis. At the same time, the importance of receiving information, views formed on the transmission of information through social networks were analyzed from various aspects.

**Keywords:** Social network, information exchange, icon, ideogram, diagram, telegram, telephone, media, information society.

### KIRISH

Bugungi jadalllik bilan rivojlanib taraqqiy etib borayotgan jamiyatda barcha sohalarda bo‘lgani kabi ijtimoiy sohalarda ham tub o‘zgarishlar ro‘y bermoqda, ayniqsa ijtimoiy sohada turli xizmatlarni bajarishda, turli xizmatlardan foydalanish ham rivojlanib bormoqda. Ijtimoiy sohadagi xizmatlar globallashgan jamiyatda onlayn amalga oshirilish ishlari ancha tarqqiy etib bormoqda. Insoniyat tarixida internetning kashf qilinishi eng yuksak yutuqlardan biri bo‘lib, xizmat qildi. Shundan keyin ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish onlayn ko‘rinishga o‘tib bordi. Darhaqiqat, internetda eng qulay va oson bo‘lgan paltforma bu ijtimoiy tarmoqlardir.

Aslida ijtimoiy tarmoq bu – internet tarmog‘ida onlayn xizmatlar, ijtimoiy munosabatlar, ko‘ngilochar dasturlar va turli mehnat maqsadida ishlatiladigan platformadir. “Ijtimoiy tarmoq tarkibi ishtirokchilari tomonidan yaratiladigan ko‘p foydalanuvchi interaktiv veb-sayt. Ijtimoiy tarmoqning maqsadi internetda o‘xshash qiziqishlar va yoki faoliyatga ega shaxslar bilan hamjamiyatlar qurishdan iborat. O‘zaro aloqa ichki pochta yoki oniy xabar almashish tizimi orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy tarmoqlar ochiq yoki yopiq bo‘lishi mumkin. Ijtimoiy tarmoq xususiyatlarining biri – “do‘stlar” va “guruqlar” tizimi”[1].

### METODLAR

Mavzu Tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida ilmiy tahlil etilgan.

### MUHOKAMA



Insoniyat paydo bo‘lgandan to hozirgi vaqtga qadar axborotga bo‘lgan ehtiyojlari shakllanib, rivojlanib, tobora ortib bormoqda. Insoniyat bugun toshdan to koinotgacha bo‘lgan bilimlar sohibi hisoblanadi. Axborot almashish uchun turli vositalarni ishlab chiqishga harakat qilib kelmoqda. Dastavval, ibtidoiy jamoa davrida biron bir belgilarga qarab, axborot almashilgan. Keyinchalik, Piktogramma shaklida ya’ni yozuvgacha bo‘lgan davrni o’z ichiga oladi. Bunda rasmlar yoki ma’lum bir ko’rgazmali jarayonlarni ifodalash orqali axborot almashish tizimini o’ylab topishadi.

Piktogrammalar (xiàngxíngzì) tasviriy rasmlar bilan yaratilgan [iyerogliflar](#) hisoblanadi. Hozirgi kunda ular iyerogliflarning unchalik katta bo‘lmagan qismini tashkil qiladi. Undagi muhim jihat shundaki, hodisa, o’simlik yoki odam aniq holicha tasvirlanadi, ortiqcha detallarga to‘xtalib o‘tilmaydi[2] Insoniyat axborot almashish jarayoni rivojlanishi natijasida ideagramma tushunchasi shakklandi. [Yunonchagadan](#) olingan bo‘lib, “idea”- “tushuncha” , “gramma” -“yozuv” degan ma’noni anglatadi. Tilning ayrim tovush-larini emas, balki to‘liq tushunchalarni ifodalashga asoslangan, shartli qabul qi-lingan yozuv belgilari (raqamlar, matematik shakllar; shuningdek, iyeroglifik yozuv belgilari). Bu turli belgilar orqali, ma’lum bir jarayoni ifodalash orqali axborot almashish imkoniyatini beradi. Diagramma (yun. diagramma - chizma, rasm, shakl) - muayyan miqdorlar (temperatura, bosim va boshqa) o‘rtasidagi bog‘lanishni grafik tarzda ifodalash (yaqqol ko‘rsatish) usullaridan biri. Masalan, statistikada ma’lumotlarni geometrik shakllar (tekisliklar, chiziqlar, doiralar va boshqa) yordamida ifodalovchi chizmalar majmui. Diagrammada o‘lchov birligi (foiz, kg, g va boshqa) miqdorning turiga qarab tanlanadi. Masalan, og‘irlik (massa) t, kg, g larda, temperatura gradus (daraja) orqali ifodalanadi [3].

Insoniyat hayotiga Chopar - otliq xabarchi. O‘tmishda Sharqda, xususan, O‘rta Osiyoda almashish imkoniyatlarini kengaytirdi. Pochta aloqasi - transport vositalari yordamida xat, davriy nashrlar, jo‘natma, pul va h.k.ni qabul qilib olib jo‘natadigan muassasalar tizimi. Pochta aloqasining yuzaga kelishi bevosita yozuvning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Yunoniston, Eron, Misr, Xitoy va Rim imperiyalarida Pochta aloqasi davlat boshqaruvida alohida ahamiyat kasb etgan va davlat Pochta aloqasi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan: jo‘natilgan xatxabarlar otda va piyoda estafeta tamoyili asosida tashilgan. Hunarmandchilik va savdosotiqning rivojlanishi bilan hunarmand va savdogarlarga xizmat qiluvchi shahar pochtalari vujudga keldi. Ular, ayni paytda, aholining boshqa tabaqalariga ham xizmat qildi [5]. Insoniyat taraqqiyoti davomida telegramma paydo bo‘lishi bilan axborot almashish birmuncha yaxshi tomonga o‘zgardi. Telegramma (tele... va gramma.) - telegraf orqali uzatiladigan hujjalni xabar. Ichki (mamlakat doirasida) va xalqaro (mamlakatlararo) telegrammalar farqlanadi. Ichki telegramma o‘z navbatida, shaharlararo va mahalliy, shoshilinch va oddiy xillarga bo‘linadi. Telegrammalarning bir yo‘la bir necha manzilga uzatiladigan, xat telegramma, faksimil telegramma (foto telegramma.) va boshqa turlari bor [6]. Axborot almashishning yangi bosqichi shakllangandan so‘ng, faqat rasm yoki turli belgilar,



yozuvdan tashqari ovozli xabar olish imkonini beruvchi telefon kashaf qilindi. Telefon - [tovush](#) uzatish va qabul qilish uchun mo‘ljallangan [telekom-munikatsiyalar](#) qurilmasidir.b Odatta tovushning mexanik [energiyasini](#) elektrik signallar energiyasiga aylantirish, masofadan uzatish va uni qaytdan tovushga aylantirish prinsipi bilan ishlaydi. Televizor, radio, gazeta va boshqa axborot almashish mexanizmlari shakllanib kirib keldi.

Globallashuv jarayonlariga kelib, axborot almashish tizimi yanada taraqqiy etib, rivojlanib boradi. Bugungi kunda hayot sur’atlari tezlashib borayotgan jamiyatda, axborotga bo`lgan talab ham, ehtiyoj ham tezlashib bormoqda.

Bu borada I Karimov quyidagi fikrni ta’kidlab o’tgan. “Fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta’minalash masalasi insonlarning axborot olish, axborotni va o’z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi va erkinligini o’zida mujassam etgan” [7].

Insoniyatning ilm fandagi yuqori yutuqlaridan biri bu internetning paydo bo`lishi bilan ifodalash mumkin. Internet global kompyuter tarmog`i hisoblanib, yagona standart asosida faoliyat ko`rsatuvchi mexanizmdir. “Tarmoqlararo” degan ma’noni ifodalarydi. Internet orqli insoniyatda axborot almashish juda osonlashdi, bir qancha qulayliklarni yaratib berdi. Bu jarayon kompyuter tizimidagi barcha axborotlarni o’zida jamlab, markazlashtiruvchi hisoblanadi. “Internet fan texnika taraqqiyoti natijasi, madaniyat evolutsiyasining hosilasi hisoblanadi. Hozirgi kunda hayotimizni internetsiz tasavvur qilish juda mushkul” [8].

Internet XX asrning buyuk kashfiyotlaridan biri hisoblanadi. Internet virtual muloqot, ma’lumotlar almashish va axborotlashgan magistral vazifalarini bajaradi. Shu tariqa “Media” tushunchasi ham paydo bo`ldi. «Media» atamasi (lotincha - medium, ya’ni vosita, vositachi, usul) turli ko’rinishdagi kommunikatsiya va axborot vositasini anglatadi. Bundan tashqari media “muhit”, “uzatish”, “muloqaot qilish” degan ma’nolarni ham anglatadi. Umuman olganda, axborot bo`lish uchun quyidagi o’ziga xos bo`lgan xususiyatlarga javob berishi shart. Dolzarb, tezkor, ishonchli, aniq, o’z vaqtida va to’liq kabi xususiyatlarga javob bersagina u haqiqiy axborot hisoblanadi.

Binobarin bugungi jamiyatni axborotlashgan jamiyat desak adashmagan bo`lamiz. “Axborotlashgan jamiyat – bu tabiat va jamiyatda sodir bo`layotgan narsa, hodisa, voqeа, jarayonlar haqida axborotlarni yig`ish, yaratish, saqlash, qayta ishlash, tizimlashtirish, uzatish va qabul qilish, iste’mol ayriboshlash, taqsimlashga asoslangan moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish jarayonlarini uyg`un holda tezkor harakatga kelтирувчи интелектуал муносабатлар заминига qurilayotgan kishilar jamiyatidir” [9]

O’tgan asrning oxiriga kelib, internet tizimida ijtimoiy tarmoqlar shakllandи hamda taraqqiy etib bugungi kunda asosiy axborot almashish vositasiga aylandi.

Ijtimoiy tarmoq bu – internet tarmog`ida onlayn xizmatlar, ijtimoiy munosabatlar, ko`ngilochar dasturlar va turli mehnat maqsadida ishlatiladigan platformadir.





Ijtimoiy tarmoqlar ma'lum bir ehtiyojlar va talablarga ega foydalanuvchilarga, qanday ma'lumot olishlari mumkin bo'lsa, xuddi shu o'quv materiallariga uydan yoki o'ziga qulay bo'lgan joydan kirish va ulardan foydalanish imkoniyatini beradi. Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarga tegishli ma'lumotlar va ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'zlarini axborot almashish imkonini beradi.[10] Har bir sohaning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari bo`lgani kabi, ijtimoiy tarmoqlarning ham o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Ijtimoiy tarmoqlarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

axborot almashish uchun deyarli barcha imkoniyatlarni taqdim etish (foto+video+blog xizmati+mikroblog xizmati+hamjamiyatlar+DM/chat+joyni belgilash imkoniyati va h.k.);

davlat ahamiyatiga molik va shoshilinch xabarlarni yetkazuvchi otliq[4]. Keyinchalik pochta tashkil bo`lishi axborot

haqiqiy ismingizni va o'zingiz haqingizda maksimal ma'lumotni ko'rsatishingiz kerak bo'lgan profillarni yaratish (masalan, profilda tug'ilgan sana, mакtab, universitet, sevimli mashg'ulot va boshqalar bo'lishi mumkin);

Ijtimoiy tarmoqlarning shakllanishiga oid quyidagi yondoshuvlarni ta'kidlab o'tish mumkin.

1) Tizimli yondoshuv asosan ijtimoiy tarmoqning geometrik shakliga e'tibor qaratiladi.

2) Resursli yodoshuv, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari imkoniyatlari ularning ularning resurslariga qarab tasniflanadi. Individual resurslar sifatida bilimlar, boylik, nufuz, obro'-e'tibor va boshqalar misol bo'ladi.

3) Normativ yondoshuv, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari o'rtasidagi ishonch darajasi, xulq-atvor va o'zaro hamkorligiga ta'sir qiladigan norma, qoida va sanksiyalar o'rganiladi.

4) Dinamik yondoshuv, vaqt o'tishi davomida ijtimoiy tarmoqlardagi o'zgarishlarga ahamiyat beriladi[12].

Shu tariqa ijtimoiy tarmoqlar shakllanib, bugungi kunda quyidagilarni misol keltirish mumkin.

**1. Facebook.** Ushbu ijtimoiy tarmoq 2004 yilda Mark sukerberg tomonidan yaratilgan bo'lib, bugungi kunda oyiga 900 million foydalanuvchiga xizmat ko'rsatadi. Tarmoq Alexa saytlar umumjahon reytingida 2 o'rinni egallab turibdi.

**2. Twitter.** Ushbu ijtimoiy tarmoq 2006 yilda Djek Dorsi, Evan Uilyams, Biz Stoun tomonidan yaratilgan bo'lib, bugungi kunda oyiga 310 million foydalanuvchiga xizmat ko'rsatadi. Tarmoq Alexa saytlar umumja-hon reytingida 8 o'rinni egallab turibdi.

**3. LinkedIn.** Ushbu ijtimoiy tarmoq 2002 yilda Rid Xoffman tomonidan yaratilgan bo'lib, bugungi kunda oyiga 255 million foydalanuvchiga xizmat ko'rsatadi. Tarmoq Alexa saytlar umumjahon reytingida 9 o'rinni egallab turibdi.



4. **Pinterest.** Ushbu ijtimoiy tarmoq 2010 yilda Rid Xoffman tomo-nidan yaratilgan bo‘lib, bugungi kunda oyiga 250 million foydalanuvchiga xizmat ko‘rsatadi. Tarmoq Alexa saytlar umumjahon reytingida 26 o‘rinni egallab turibdi.

5. **Google Plus+.** Ushbu ijtimoiy tarmoq 2011 yilda yaratilgan bo‘lib, bugungi kunda oyiga 120 million foydalanuvchiga xizmat ko‘rsatadi. Tarmoq Alexa saytlar umumjahon reytingida qayd etilmagan.

6. **Tumblr.** Ushbu ijtimoiy tarmoq 2007 yilda Devid Karp tomonidan yaratilgan bo‘lib, bugungi kunda oyiga 110 million foydalanuvchiga xizmat ko‘rsatadi. Tarmoq Alexa saytlar umumjahon reytingida 34 o‘rinni egallab turibdi.

7. **Instagram.** Ushbu ijtimoiy tarmoq 2010 yilda Kevin Sistrom va Mayk Kriger tomonidan yaratilgan bo‘lib, bugungi kunda oyiga 100 million foydalanuvchiga xizmat ko‘rsatadi. Tarmoq Alexa saytlar umumjahon reytingida 36 o‘rinni egallab turibdi.

8. **VKontakte.** Ushbu ijtimoiy tarmoq 2006 yilda Pavel Durov tomo-nidan yaratilgan bo‘lib, bugungi kunda oyiga 80 million foydalanuvchiga xizmat ko‘rsatadi. Tarmoq Alexa saytlar umumjahon reytingida 21 o‘rinni egallab turibdi.

9. **Flickr.** Ushbu ijtimoiy tarmoq 2004 yilda Styuart Batterfield va Katerina Feyk tomonidan yaratilgan bo‘lib, bugungi kunda oyiga 65 million foydalanuvchiga xizmat ko‘rsatadi. Tarmoq Alexa saytlar umumjahon reytingida 91 o‘rinni egallab turibdi.

10. **MySpace.** Ushbu ijtimoiy tarmoq 2003 yilda Kris DeVulf tomo-nidan yaratilgan bo‘lib, bugungi kunda oyiga 42 million foydalanuvchiga xizmat ko‘rsatadi. Tarmoq Alexa saytlar umumjahon reytingida 969 o‘rinni egallab turibdi.

11. **Meetup.** Ushbu ijtimoiy tarmoq 2002 yilda Skott Xayferman to-monidan yaratilgan bo‘lib, bugungi kunda oyiga 40 million foydalanuvchiga xizmat ko‘rsatadi. Tarmoq Alexa saytlar umumjahon reytingida 296 o‘rinni egallab turibdi.

12. **Tagged.** Ushbu ijtimoiy tarmoq 2004 yilda Yoxann Shlyayer-Smit va Greg seng tomonidan yaratilgan bo‘lib, bugungi kunda oyiga 38 million foydalanuvchiga xizmat ko‘rsatadi. Tarmoq Alexa saytlar umumjahon rey-tingida 408 o‘rinni egallab turibdi.

13. **Ask.fm.** Ushbu ijtimoiy tarmoq 2010 yilda Oskar Liepinsh, Mark Terebin va Ilya Terebin tomonidan yaratilgan bo‘lib, bugungi kunda oyiga 37 million foydalanuvchiga xizmat ko‘rsatadi. Tarmoq Alexa saytlar umum-jahon reytingida 179 o‘rinni egallab turibdi.

14. **MeetMe.** Ushbu ijtimoiy tarmoq 2005 yilda Djeff Kuk va Devid Kuk tomonidan yaratilgan bo‘lib, bugungi kunda oyiga 15,5 million foydala-nuvchiga xizmat ko‘rsatadi. Tarmoq Alexa saytlar umumjahon reytingida 2328 o‘rinni egallab turibdi.

15. **ClassMates.** Ushbu ijtimoiy tarmoq 1995 yilda Rendi Konrads tomonidan yaratilgan bo‘lib, bugungi kunda oyiga 15 million foydala-nuvchiga xizmat ko‘rsatadi. Tarmoq Alexa saytlar umumjahon reytingida 4022 o‘rinni egallab turibdi.





## XULOSA

Insoniyat axborot almashishning turli yo'llarini izlab, ijtimoiy tarmoqlarni kashf qiladi va aloqa vositasi sifatida bugungi globallashgan jamiyatlarda eng asosiy vosita sifatida shakllanib xizmat qiladi.

### ADABIYOTLAR:

1. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati. Toshkent -2010, 82b
2. Молоткова, Ю. В. „Методика обучения китайскому иероглифическому письму“ (2017).
3. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-2005-yil
4. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiysi. – Т., 2010.
5. I Saifnazarov va boshqalar. Falsafa darslik. Innovatsion rivojlanish nashriyotmatbaa uyi, 2021, 357-b.
6. J.Ya. Yaxshilikov, N.E. Muhammadiyev “texnika information texnologiyalar falsafasi. Samarqand. 2019, 145 – б.”
7. Nazarov R.N. “Ijtimoiy tarmoqlar mohiyati, tasnifi va funksiyalari”. International Journal of Education, social science &Humanities. 2023-y 243 b.
8. Mirsaidovich, M. M. (2023). RELIGIOUS-IDEOLOGICAL STRUGGLE DURING AMIR TIMUR. Miasto Przyszłości, 43, 589-593.
9. Мамасалиев, М. М. (2023). ЗАМОНАВИЙ КУТУБХОННИНГ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ТИЗИМИДАГИ ЎРНИ. *International scientific journal of Biruni*, 2(4), 106-110.
10. Рустамов, Р. (2022). СОЦИАЛЬНАЯ ЗАЩИТА КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА. Scientific Collection «InterConf», (118), 41-49.
11. Rustamov, R. R. (2018). MODERN PROPAGANDA TECHNOLOGY AND THEIR MAIN PURPOSE. Научное знание современности, (10), 35-38.

